

Sadiyev Umidjon Abdusamadovichning texnika fanlari falsafa doktorlik dissertatsiyasi himoyasi haqida

SADIYEV UMIDJON ABDUSAMADOVICH

Texnika fanlari falsafa doktorlik dissertatsiyasi himoyasi haqida

E'LON

I. Umumiy ma'lumotlar.

Dissertatsiya mavzusi, ixtisoslik shifri (ilmiy daraja beriladigan fan tarmog'i nomi): "Irrigatsiya kanallarida suvdan foydalanishning samaradorligini va ishonchliligini oshirish usullari", 05.09.07- Hidravlika va muhandislik gidrologiyasi (texnika fanlari).

Dissertatsiya mavzusi ro'yxatga olingan raqam: V2017.1.PhD/T132

Ilmiy maslaxatchining F.I.Sh., ilmiy darajasi va unvoni:

Maxmudov Ilxomjon Ernazarovich, texnika fanlari doktori, professor.

Dissertatsiya bajarilgan muassasa nomi: Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot instituti.

IK faoliyat ko'rsatayotgan muassasa (muassasalar) nomi, IK raqami: Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti huzuridagi DSs.27.06.2017.T.10.02 raqamli Ilmiy kengash.

Rasmiy opponentlar: D.R.Bozorov, texnika fanlari doktori, professor (05.09.07), Z.M.Malikov, texnika fanlari doktori (05.09.07).

Yetakchi tashkilot - Toshkent arxitektura qurilishi instituti

Dissertatsiya yo'nalishi: nazariy va amaliy ahamiyatga molik.

II. Tadqiqotning maqsadi: sug'orma dehqonchilik tizimidagi irrigatsiya kanallarida suvdan samarali va ishonchli foydalanishning boshqarish usullarini takomillashtirish, gidravlik hisoblash usullarini ishlab chiqish va GAT texnologiyalarini qo'llash asosida sug'orish kanallarida suvdan foydalanishning ishonchliligi va samaradorligini oshirish.

III. Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

tuproq o'zanli va beton qoplamali kanallardan ro'y berayotgan filtratsiyani gidravlik hisoblash usullari filtratsion qarshilik usuli asosida takomillashtirilgan.

irrigatsiya kanallarining ishonchlilik holatini bashorat qilish usullari tasodifiy diagnostika gipotezalari va Bayes usuli asosida takomillashtirilgan;

magistral kanallarning samaradorligi va ishonchlilikni ta'minlay oladigan oqimning optimal gidravlik parametrlarini hisoblash usullari boshkaruv nazariyasi asosida takomillashtirilgan;

bir o'lchovli bekaror suv xarakatini ifodalovchi gidravlik model suv sarfi eksponensial tartibda o'zgarganda kanallarning ishonchlilik va Frud o'xshashlik mezonlari asosida ishlab chiqilgan;

IV. Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Irrigatsiya kanallarida suvdan foydalanishning samaradorligini va ishonchliligini oshirish usullari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

tuproq o'zanli va beton qoplamali kanallardan ro'y berayotgan filtratsiyaning gidravlik hisoblash usullari Suv xo'jaligi vazirligi tasarrufidagi Chirchiq-Oxangaron irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi tomonidan Toshkent magistral kanali, Parkent va Xandam kanallariga joriy etilgan (Suv xo'jaligi vazirligining 2019-yil

3-may 03/25-1835-son ma'lumotnomasi). Natijada irrigatsiya kanallarida suvdan foydalanish ishonchligi va samaradorligini oshirish imkoni yaratilgan;

bir o'lchovli bekaror suv xarakatini ifodalovchi gidravlik model Suv xo'jaligi vazirligi tasarrufidagi Chirchiq-Oxangaron irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi tomonidan Toshkent magistral kanali, Parkent va Xandam kanallariga joriy etilgan (Suv xo'jaligi vazirligining 2019-yil 3-may 03/25-1835-son ma'lumotnomasi). Natijada irrigatsiya kanallarida manbadan olinadigan suvga nisbatan 5-7% dan ortiq suv resurslari iqtisod qilishni imkoni yaratilgan;

magistral kanallarning samaradorligi va ishonchlilikni ta'minlay oladigan oqimning optimal gidravlik parametrlarini hisoblash usullari Suv xo'jaligi vazirligi tasarrufidagi Chirchiq-Oxangaron irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi tomonidan Toshkent magistral kanali, Parkent va Xandam kanallariga joriy etilgan (Suv xo'jaligi vazirligining 2019-yil 3-may 03/25-1835-son ma'lumotnomasi). Natijada sug'orish kanallaridan foydalanish ishonchligi va samaradorligini oshirish orqali suv tanqisligi sharoitida suv resurslarini samarali boshqarish imkoni yaratilgan.

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, t.f.d. Sultanov T.Z.

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashning ilmiy kotibi,t.f.d., professor Yangiyev A.A.

Ilmiy rahbar, t.f.d., professor Maxmudov I.E.

Talabgor Sadiyev U.A.A